

**FRAZA, FRAZEMA VA FRAZELOGIYA ATAMALARIGA O‘ZBEK, RUS  
VA INGLIZ TILLARIDAGI LUG‘ATLARDA BERILGAN TASNIFLAR  
КЛАССИФИКАЦИИ ТЕРМИНОВ ФРАЗЫ, ФРАЗЕМА И ФРАЗЕОЛОГИЯ  
ПРИВЕДЕНЫ В СЛОВАРЯХ УЗБЕКСКОГО, РУССКОГО И  
АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ  
CLASSIFICATIONS OF THE TERMS PHRASE, PHRASEME AND  
PHRASEOLOGY IN THE DICTIONARIES OF UZBEK, RUSSIAN AND  
ENGLISH LANGUAGES**

**Uraimova Mohigul Qobuljon qizi,**

Farg‘ona davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

[mohigulqobulovna@gmail.com](mailto:mohigulqobulovna@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqola fraza, frazema va frazeologik birliklarning izohli, qomusiy va ensiklopedik lug‘atlarda berilgan ta’riflari tahliliga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** fraza, frazema, frazeologiya, uslub, ibora.

**Аннотация.** Данная статья посвящена анализу определений фразы, фразема и фразеологических единиц, приведенных в толковых, компаративных и энциклопедических словарях.

**Abstract.** This article is devoted to the analysis of definitions of phraseological, phraseological units given in explanatory, comprehensive and encyclopedic dictionaries.

**Key words:** phrase, phraseology, phraseology, style, phrase.

### **Kirish**

Tilshunoslik bo‘limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat yetibori frazeologizmlarni o‘rganishga qaratiladi. Frazeologizm so‘z kabi lug‘aviy birlik hisoblanadi. Ular ham so‘z kabi tilda tayyor holda mavjud bo‘lganligi sababli nutq hodisasi emas, balki til hodisasi. So‘z leksik ma’noga ega bo‘lgani kabi frazeologizm o‘am o‘zining frazeologik ma’nosiga ega. Ushbu maqolada “faza, frazema, frazeologiya” atamalarining uch tildagi lug‘atlarda berilgan ta’riflari bilan tanishib chiqamiz.

### Asosiy qism

Ingliz tilidagi “Merriam-Webster” lug‘atida frazaga quyidagicha ta’rif berib o‘tiladi:

“a phrase is a characteristic manner or style of expression or a brief expression; a word or group of words forming a syntactic constituent with a single grammatical function” ya’ni “ibora-bu o‘ziga xos uslub yoki ifoda uslubi yoki qisqacha ifoda; bitta grammatik funksiyaga ega sintaktik tarkibiy qismni tashkil etuvchi so‘z yoki so‘zlar guruhi.”

“Oxford English” lug‘atida esa “a group of words that have a particular meaning when used together” ya’ni “birgalikda ishlatilgandagina ma’lum bir ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar guruhi” deya keltiriladi. Unga sinonim sifatida esa “term, phrase, expression, idiom” so‘zlari keltirilgan.

“Cambridge dictionary” nomli lug‘atda esa frazalar “a short group of words that are often used together and have a particular meaning”: *We are governed, in Lord Hailsham’s famous phrase, by an “elective dictatorship”* ya’ni “ko‘pincha birgalikda ishlatiladigan va ma’lum bir ma’noga yega bo‘lgan so‘zlarning qisqa guruhi: Lord Heylshamning mas’hhur iborasiga ko‘ra, biz “saylanadigan diktatura” tomonidan boshqarilamiz” kabi ta’rifga yega.

“Farleks” nomli ingliz tilidagi onlayn yensiklopediyada “phrases are groups of two or more words that work together to perform a single grammatical function in a sentence. Unlike clauses, phrases do not contain both a subject and a predicate (although they sometimes function as one or the other)” ya’ni “frazalar jumlada bitta grammatik funksiyani bajarish uchun birgalikda ishlaydigan ikki yoki undan ortiq so‘zlardan iborat guruhlardir. Gaplardan farqli o‘laroq, iboralar ham egani, ham kesimni o‘z ichiga olmaydi (garchi ular u yoki bu vazifada kelsa ham). Shuningdek, ushbu bo‘limda frazaviy ibora degan atama ham berilgan bo‘lib, uning ta’rifi quyidagicha:

“Frazeologik idioma-uni tashkil yetuvchi so‘zlarning ma’nolaridan umumiy ma’noni xulosa qilib bo‘lmaydigan so‘zlar jamlanmasi. Ingliz tilida frazalarni

ifodalovchi “Idiomatic expression, set phrase, idiom, saying, expression, locution” kabi atamalardan ham foydalaniladi.

*Rus tilidagi tilshunoslikning ensiklopedik lug‘atida iboraning ikki xil ta’rifi keltiriladi va ular quyidagicha:* “Fraza:

1. “Отрезок речи, выражающий законченную мысль и являющийся достаточно самостоятельным в интонационном отношении; словесное выражение мысли” ya’ni “To‘liq fikrni ifoda etadigan va intonatsion jihatdan mustaqil bo‘lgan nutq segmenti; fikrning og‘zaki ifodasi.”

2. “Красивые и напыщенные слова, скрывающие лживость утверждения или неблаговидность поступка; набор красивых слов, фразерство ya’ni “Nutqning yolg‘onligini yoki qilmishni yashiradigan chiroyli va dabdabali so‘zlar; chiroyli so‘zlar to‘plami, frazeologik birliklar”.

Sharl Balli phraseologie [Bally, 1905] atamasini “o‘ziga tegishli iboralarni o‘rganuvchi stilistika bo‘limi” manosida kiritgan, ammo bu atama G‘arbiy Yevropa va Amerika tilshunoslarining asarlarida keltirilmagan va boshqa uchta manoda ishlatilgan:

- 1) so‘zlarni tanlash, ifoda shakli, shakllantirish;
- 2) til, bo‘g‘in, uslub;
- 3) iboralar, iboralar.

Bu ingliz va Amerika lug‘atlaridagi “phraseology” so‘zining tariflari bilan tasdiqlangan:

The choice or arrangement of words and phrases in the expression of ideas; manner or style of expression; the particular form of speech or diction which characterises a writer, literary production, language, etc. (The Oxford English Dictionary. Oxford, 1933, Vol. VII).

Choice of words; wording (Hornby A.S. The Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English. London, 1974).

Manner of using and arranging words (Longman Modern English Dictionary. London, 1976).

1. Manner or style of verbal expression; characteristic language;
2. Expressions, phrases (The Random House Dictionary of the English Language. New York, 1970).

Rus tilidagi “Лингвистический энциклопедический словарь” (2012) da esa frazeologiya haqida quyidagicha ma’lumotlar berilgan: “Frazeologiya (yunon tilidan. phrasis, tur; phraseos-ifoda va logos — so‘z, ta’limot) — 1) tilning frazeologik tarkibini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi (qarang frazeologik birlik) uning hozirgi holatida tarixiy rivojlanish; 2) frazeologik tarkib bilan bir xil bo‘lgan ma’lum bir tilning frazeologik birliklari to‘plami. Lingvistik bilim bo‘limi sifatida frazeologiyaning predmeti frazeologik birliklarning tabiati va ularning kategorik xususiyatlarini o‘rganish, shuningdek, nutqda ularning ishlash qonuniyatlarini aniqlashdir. Frazeologiya tadqiq etuvchi frazeologik birliklar-idiomalar, frazeologik birliklar o‘rtasidagi farqqa muvofiq quyidagicha guruhlarga bo‘linadi: so‘z kombinatsiyalari va barqaror iboralar (maqollar, qanotli so‘zlar va boshqa frazeologik birliklar-jumlalar). Tadqiqotchilar frazeologiya tor manoda, frazeologik birliklarni-iboralar va frazeologik birliklarni: kombinatsiyalar, birinchi navbatda, so‘zning o‘zaro bog‘liq ma’nolari va ular orqali leksikologiya bilan chambarchas bog‘liqligini o‘rganishini, keng ma’noda esa, turli xil tarkibiy turlarning barqaror iboralarini semiotik funksiyalari (folklor birliklari, badiiy matnlar, salomlashish qoliplari va boshqalar)ni o‘rganishini ta’kidlaydilar.

“Большой энциклопедический словарь» (2012) da esa frazeologiya “tilning frazeologik tarkibini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi”, “ma’lum bir tilning frazeologik birliklari to‘plami” deb aytib o‘tiladi.

“Новый словарь иностранных слов” (2012) da esa frazeologiyaga “nutqning barqaror birliklarini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi”, “til nutqining barqaror birikmalari to‘plami” deya ta’rif beriladi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa fraza quyidagicha ta’riflanadi: “Fraza- (yunoncha phrasis-ibora, jumla) nutqning tugal fikr bildiruvchi, odatda gapga teng keluvchi mustaqil birligi”. Frazeologizm esa: “(yunoncha phrasis-ibora, jumla+logos-

so‘z) tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma‘no anglatadigan, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlik (masalan, tomdan tarasha tushganday-to‘satdan, qo‘qqisdan)”.

Frazeologiya “tilshunoslikning muayyan tilgagina xos bo‘lgan frazeologizm (frazema) larni o‘rganadigan sohasi”, “biror tildagi frazeologizmlar majmui”.

Ibora esa: “Biror tushuncha yoki fikr ifodalovchi, odatda, so‘zlarning turg‘un birikmasi (so‘z birikmasi yoki gapga teng jumla); tabir.” Obrazli ibora: Chernitsov “vaqtincha tantana”, vaqtincha chekinish, qayta hujumga o‘tish degan iboralarni qiynalib aytdi. I. Rahim; Chin muhabbat; Ular Suqrotning Avval o‘zingni angla, shunda dunyoni anglaysan degan mashhur iborasini o‘zlariga dasturilamal qilib olishgan.

### **Xulosa**

Xulosa shuki, “frazeeologizm-bu tuzilishi jihatidan so‘z birikmasiga yoki gapga teng keladigan til birligi sanalib, o‘zbek tilida ibora yoki turg‘un birikma deb ataladi”. Shuningdek, so‘zdagi barcha paradigmatic, sintagmatic xususiyatlarni frazeologizmlarda ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga frazeologizmlar so‘z va erkin so‘z birikmasidan bir qancha xususiyatlari bilan farqlanadi. Masalan, frazeologizm frazeologik sath elementi, birligi sifatida frazeologiya va frazeografiya ob‘ektidir. Frazeologiyani tashkil etuvchi komponentlar ma‘no butunligiga ega emas, ular faqatgina shakl va tovush tomoni bilan so‘zga o‘xshaydi. Ularni tashkil qiluvchi komponentlarning frazeologik ma‘nosi turg‘un, ko‘proq emotsional ekspressiv xususiyatga ega bo‘lgan belgi, harakat kabilarni ifodalaydi. Shuning uchun ham frazeologik ma‘no leksik ma‘nodan bir qancha jihatlari bilan farqlanadi. Aksariyat frazeologizmlarning identifikatori mavjud emas, ya‘ni mazkur frazeologizm ifodalab kelayotgan ma‘nosini bir so‘z bilan almashtirib bo‘lmaydi hamda bu ma‘no erkin so‘z birikmasi bilan izohlanishi mumkin xolos. Demak, yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, fraza va frazeologiyaga berilgan ta‘riflar uchala tilda ham deyarli o‘xshash, faqatgina ayrim jihatlari bilangina farq qilar ekan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Cambridge dictionary.
2. Merriam-Webster dictionary.
3. Oxford English Dictionary
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2021.
5. Большой энциклопедический словарь, 2012
6. Лингвистический энциклопедический словарь, 2012
7. Новый словарь иностранных слов, 2012
8. Abdumalik o‘g‘li, O. R. (2023). Theoretical Aspect of “Synecdoche “As a Stylistic Figure. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(4), 249-254.
9. Ortiqov, R. (2022). FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETIDA INGLIZ TILINI O‘RGANISH UCHUN YORDAM BO‘LADIGAN INTERNET VEBSAYTLAR. Science and innovation, 1(B6), 530-535.